

Fargʻona Davlat universiteti,
Jahon va mintaqa iqtisodiyot kafedrası
mustaqil izlanuvchisi
Qoraboyev Azizjon Abdurasul oʻgʻli

**FARGʻONA VILOYAT KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINI IJTIMOIIY IQTISODIY RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI.**

***Anotatsiya:** Fargʻona viloyatini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishini ilmiy jihatdan oʻrganish, tahlil qilish va isteqbolliy startegiya ishlab chiqish.*

***Kalit soʻzlar:** hududiy joylashuv, YaIM, YaHM, ekispor, indeks, import, subyekt, aksiyodorlik, tijorat.*

**ТЕНДЕНЦИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ
СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ.**

*Ферганский государственный университет,
Кафедра мировой и региональной экономики*

Независимый исследователь

Карабоев Азизжон Абдурасул углы

***Аннотация:** Научное исследование, анализ и разработка перспективной стратегии социально-экономического развития субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства Ферганской области.*

***Ключевые слова:** Территориальное расположение, ВВП, ВРП, экиспор, индекс, импорт, предмет, акции, коммерция.*

TRENDS IN SOCIAL ECONOMIC DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE BUSINESS ENTITIES OF THE FERGANA REGION.

Fergana State University,

Department of World and Regional Economics

Independent Researcher

Qoraboyev Azizjon Abdurasul o'g'li

Anotation: *The study, analysis and development of a voluntary start-up of the Fergana region from a scientific nature of social, economic development of small business and private business entities.*

Keywords: *Territorial location, GDP, YaHM, ekispor, index, import, subject, shareholder, commercial.*


Tadqiqot obyektining dolzarbligi shundaki Farg'ona viloyati kichik biznes va xusuiy tadbirkorlik subyektlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini monitoring qilishning quydagi jixatlariga etibor berish kerak:

- Respublika, viloyat, tuman va mahalliy miqyosda kichik biznes va xusuiy tadbirkorlik subyektlarini barqaror rivojlanish muammolarini tor va keng doirada taxlil qilish murakkab jarayondir;
- Taxlil uchun mavjut axborat bazasini to'liq shakillanmaganligi sababli turli manbalardan foydalanish, asosiy tarmoq va soxalarga etibor qaratishni dolzarbligi;
- Kichik biznes va xusuiy tadbirkorlik subyektlarni boshqa subyektlardan ajratib olgan holda, bir tizimga solgan holda taxlil qilish;

- Subyektlarni ijtimoiy -iqtisodiy va siyosiy rivojlanishini tartibga solish sohalar bo'yicha hududiy siyosatni amalga oshirishni dolzarbligi;
- Olib borilayotga islohatlarni natijalarini taxlil qilish, bevosita va bilvosita ta'sir qilubchi omillarni tasirini aniqlash;
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy xolati va ularning isteqbolliiy rivojlanishi mintaqa miqyosida amalga oshirrilayotgan strategik ishlar, maqsadli dasturlar, ishbilarmonlik muhiti investitsion loixalar bilan o'zaro bog'langanligi.

Farg'ona viloyati qadimdan shakillanib kelgan silvizatsiya markazlaridan hissoblanadi. Geografik joylashuvi jihatdan mamlakatimizni sharqida, Farg'ona vodiysini janubiy qismida joylashgan. Chegaradosh davlatlari janub va sharqdan Qirg'iziston respublikasi, g'arbda Tojikizston respublikasi bilan chegaradosh va shimoldan Namangan va Andijon viloyatlari bilan chegaradosh. Farg'ona viloyatida 15 ta tuman, 4 ta viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar (Marg'ilon, Farg'ona, Quvasoy va Qo'qon), 5 ta tumanga bo'ysunuvchi shaharlari (Beshariq, Hamza, Rishton, Quva va Yaypan) mavjud. Bunday infra tuzulma rivojlanish jihatdan qulay bo'lishiga qaramay birmuncha jixatlari murakkab va muammoli ishlangan. Bunga misol So'x tumani, Yozovon tumanining ayrim hududlari va Qo'qonga yondosh tumanlarning rivojanishiga Qo'qon shaharining ta'sirini aytish mumkin.

Bizga ma'lumki hududni iqtisodiyoti qanchalik rivojlanganligini YaIM hajmiga qarab taxlil qilishimiz mumkin so'ngi yillarda Farg'ona viloyati kichik biznes va xusuiy tadbirkorlik subyektlarining umumiy YaIMdagi ulushi sezilarli darjada o'zgargan. Bunday holatni quydagi diogrammadan tahlil qilsak bo'ladi.




1-rasim. **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi (foizda).**¹

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilsak 2010-yilda Respublikamizda o'rtacha YaIMdagi ulushi 60,8 foizni tashkil qilgan. Farg'ona viloyati o'rtacha ko'rsatkichdan 4,1 foiz yuqoriligi bilan harakterlangan holda 64,9 foizni tashkil qilgan. 2015-yilga kelib Respublikamizda o'rtacha ko'rsatkich 3,8 foizga o'sgan, ya'ni 64,6 foizni tashkil etgan. Farg'ona viloyati esa 2010-yilga nisbatan 4,8 foizga o'sgan holda 69,7 foizga ortgan. 2020-yilga kelib Respublikamizda o'rtacha ko'rsatkich 2010-yilga nisbatan 3,3 foizga pasayib, 2015-yilga nisbatan 7,1 foizga kamaygan ya'ni 57,5 foizni tashkil etgan. Farg'ona viloyati esa 2010-yilga nisbatan 4,8 foizga oshgan, 2015-yilga nisbatan 8,4 foizga ko'paygan ya'ni 73,3 foizni tashkil etgan. 2024-yilda bu ko'rsatkich Respublikamizda 54,3 foizni tashkil etib 2010-yilga nisbatan 6,5 foizga pasayib, 2015-yilga nisbatan 10,3 foizga pasayib, 2020-yilga nisbat esa 3,2 foizga kamayishi kuzatilgan. Farg'ona viloyatida esa 2024-yilda bu ko'rsatkich 73,1 foizni tashkil qilib 2010-yilga nisbatan 8,2 foizga o'sgan, 2015-yilga nisbatan 3,4 foizga oshgan, 2020-yilga nisbat esa 0,2 foizga kamayishi kuzatilgan. Respublikamizda kichik biznes va

¹ O'zbekiston statistika qo'mitasi ma'lumotlari muallif tomonidan qayta ishlangan.

xususiy tadbirkorlik subyektlarini YaIMda o‘shish ko‘rsatkichi 2010-yildan 2024-yilga nisbatan o‘rtacha 60,3 foizni tashkil etib, foiz hisobida -10,7 ga kamaygan. Farg‘ona viloyatida esa bu ko‘rsatkich 2010-yildan 2024-yilga nisbatan o‘rtacha 9,6 foiz ko‘pligi bilan xarakterlanib 69,9 foizni tashkil etib, foiz hisobida esa 12,5 foizni tashkil etib Respublikani o‘rtacha o‘shish foiziga nisbatan 20,3 foiz ko‘pligi bilan xarakterlanmoqda. Bu ko‘rsatkichlar esa Farg‘ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qolgan viloyatlarga nisbatan yaxshi rivojlanganligini bildiradi.

Farg‘ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy tarmoq tarkibi birmuncha muarkkab rivojlangan bo‘lib to‘liq tahlil qilinmaganligi birmuncha muammolarni yuzga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Yuqorida keltirigan manbalarda YaIMda ulushi pasayishi kuztilganligi buning isbotidir.



2-rasm. Farg‘ona viloyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiy tarmoqlar tarkibi (umumiy hajmga nisbatan % da).²

Diagrammada Farg‘ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi yillar kesimida ko‘rsatilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, ushbu subyektlarning viloyat iqtisodiyotida tutgan o‘rni yil sayin ortib bormoqda. Avvalo, yalpi hududiy mahsulot (YaHM) tarkibida kichik biznesning ulushi 2010-yilda 64,9 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 73,1 foizga yetgan. Bu esa kichik biznesning umumiy iqtisodiy faollikdagi ulushi izchil ortib borayotganini bildiradi.

² O‘zbekiston statistika qo‘mitasi ma’lumotlari muallif tomonidan qayta ishlangan.


Sanoat tarmog'ida ham sezilarli o'sish kuzatilgan. 2010-yilda kichik biznesning sanoatdagi ulushi 22,5 foiz bo'lgan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatkich 42,9 foizga, 2020-yilda 46 foizga, 2024-yilda esa 45,3 foizga yetgan. Bu holat kichik sanoat subyektlarining sanoat ishlab chiqarishidagi rolini kuchayganini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ida kichik biznesning ulushi doimo yuqori bo'lib kelgan. 2010-yildagi 95,5 foizlik ko'rsatkichi 2024-yilda 95 foiz atrofida barqaror saqlanib qolgan. Bu esa ushbu sohada kichik fermer xo'jaliklari va xususiy ishlab chiqaruvchilarning yetakchi o'rin egallayotganidan dalolat beradi.

Qurilish sohasida ham xususiy sektor faolligi ortgan. 2010-yilda 76,4 foizni tashkil qilgan ulush 2020-yilda 91,5 foizgacha ko'tarilib, 2024-yilda esa 89,9 foiz bo'lib, yuqori darajada saqlanmoqda.

Bandlik sohasida esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli doimiy yuqoriligi bilan ajralib turadi. 2010-yilda 77 foiz bo'lgan ko'rsatkich 2024-yilga kelib 78,4 foiz darajasida saqlangan. Bu esa ushbu subyektlarning ish o'rinlari yaratishdagi asosiy manba ekanligini ko'rsatadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik Farg'ona viloyati iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoqlarida muhim o'rin tutmoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi, qurilish va bandlik sohalarida ulush juda yuqori. Sanoat va YaHM bo'yicha o'sish barqaror davom etmoqda, bu esa diversifikatsiyalashuv jarayonining kuchayganini bildiradi.

Viloyatni yillar davomida iqtisodiy rivojlanib borishi ko'plab statistik ko'rsatkichlarda o'z isbotini topmoqda. Masalan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni YaIM indeksini taxlil qilsak o'rganilgan davr mobaynida yillar kesimida chuqur taxlil va mulohaza yuritsak bo'ladi. Quyidagi diogrammada 2010-yildan 2024-yillar oralig'ida aholi jon boshiga to'g'ri keladigon YaIM indeksini taxlil qilingan.



3-rasm. Farg‘ona viloyati kichik biznes va xususiy tadbirkorliklarini aholi jon boshiga YaIM indeks³.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2010–2024 yillar davomida Farg‘ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi jon boshiga YaIM indeksi sezilarli tebranishlarga ega bo‘lgan. Bu holat viloyat iqtisodiyotida kichik biznes subyektlarining faolligi, ishlab chiqarish hajmi va aholi sonining o‘zgarishlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

2010-yilga nisbatan 2011-yildagi indeks 17,7% gacha oshgan bo‘lib, bu davrda viloyatda kichik biznes subyektlari faoliyatini kengaytirish va soddalashtirilgan soliq tizimining tatbiqi natijasi sifatida izohlanadi. 2012–2014-yillar oralig‘ida indeks nisbatan barqaror bo‘lib, 15,3–16,6% oralig‘ida saqlanib qolgan. Bu davrda kichik tadbirkorlik sektori asosan savdo, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlarida rivojlanishni davom ettirgan.

2015–2017-yillarda esa indeksda pasayish tendensiyasi kuzatilgan bo‘lib, 2017-yilda eng past daraja — 10,2% qayd etilgan. Ushbu pasayish kichik biznes faoliyatining ayrim tarmoqlarida qisqarishi, shuningdek, iqtisodiyotning umumiy tarkibida yirik ishlab chiqarish korxonalarining ulushi ortganligi bilan izohlanadi.

2018-yilda esa indeksda keskin o‘shish kuzatilib, 20,6% ga yetgan. Bu davrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga

³ O‘zbekiston statistika qo‘mitasi ma’lumotlari muallif tomonidan qayta ishlangan.

qaratilgan qarorlari, xususan 2017–2018-yillardagi “Tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishni jadallashtirish dasturi” natijalari o‘z samarasini bergan⁴.

2019–2020-yillarda indeksi yana nisbatan pasayib, 11,6–11,9% darajalarida saqlanib qolgan. 2021–2022-yillarda esa Farg‘ona viloyatida kichik biznesning jon boshiga ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshib, indeks 23,2% ko‘rsatkich bilan eng yuqori nuqtaga chiqqan. Bu davrda viloyatda sanoat klasterlari, oilaviy tadbirkorlik loyihalari va mikromoliyaviy institutlar faoliyatining kengayishi kuzatilgan.

2023-yilda indeksda yana qisqa muddatli pasayish — 12,1% qayd etilgan bo‘lsa, 2024-yilda u 17,8% gacha tiklangan. Bu holat pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish, iste‘mol bozori kengayishi va yangi kichik ishlab chiqarish subyektlarining paydo bo‘lishi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, 2010–2024 yillar mobaynida Farg‘ona viloyatining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektori dinamik, lekin siklik o‘zgarishlarga ega bo‘lgan. Indeks qiymatlarining tebranishi kichik biznes subyektlarining makroiqtisodiy omillar, davlat siyosati va hududiy investitsion faollikka bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, Farg‘ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi jon boshiga YaIM indeksi o‘rganilgan davrda o‘rtacha 15–17% diapazonida shakllangan. Bu ko‘rsatkich viloyat iqtisodiyotida kichik biznesning barqaror o‘sish omili sifatida muhim ro‘l o‘ynayotganini, ammo ayrim yillarda iqtisodiy tebranishlar va tashqi omillar ta‘siri sezilarli bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bois, kelgusida kichik biznesning innovatsion faoliyatini kengaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va hududiy diversifikatsiyani chuqurlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.01.2024 yildagi 37-sonli qarori.
2. Xodiyev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: TDIU, 2010.
3. Samadov A.N., Ostanaqulova G.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: Moliya-iqtisod, 2008.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.01.2024 yildagi 37-sonli qarori.

4. Qosimova M.S., Yusupov M.A., Yergashxodjayeva Sh.J. Marketing. – T.: TDIU -2010.
5. Salamov.I., Qudratov.T., Qudratova.I. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (Ma’ruzalar kursi) –Samarqand-2015
6. Burton.G. Tadbirkorlik va kichik biznesni boshqarish. ISBN 978-1-9789-2433-8 Library Press tomonidan. New York, NY 10001, AQSh
7. <https://lex.uz>
8. <https://www.norma.uz>
9. <https://www.stat.uz>
10. <https://www.gazeta.uz>